


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**



**60320100 – JURNALISTIKA: SPORT JURNALISTIKASI BAKALAVRIAT  
TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Toshkent – 2023

Tuzuvchilar:	A.Xasanov – O'zJOKU O'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	A.Safarov – O'zJOKU Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	A. Nurmatov – Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Taqrizchilar:	M. To'xtamirzaev – “Sport”, “Sport+” va “O'zbekiston futboli” gazetasi bosh muharriri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Z.Karimov – O'zbekiston MTRK “Sport” telekanali direktori

## Kirish

**60320100 – Jurnalistika: sport jurnalistikasi** ta’lim yo‘nalishida ijodiy imtihon o‘tkazishdan maqsad, abiturientda mazkur sohada talab etiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abiturientlarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda yoritilayotgan sport sohasidagi dolzARB mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Sport sohasiga ixtisoslashgan OAV faoliyatini qay darajada bilishi;
- Sport jurnalistikasi va sport sharhlovchilari faoliyati haqida yetarli tasavvurga egaligi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- Yozma va og‘zaki savodxonlik darajasi;
- O‘z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og‘zaki muloqotga moyilligi.

### Ijodiy imtihonning tuzilishi

#### **Ijodiy imtihon 2 bosqichda o‘tkaziladi.**

**Birinchi bosqich** abiturientlarning ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo‘yicha og‘zaki suhbat bo‘lib, u quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

– abiturientning ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan, efirga uzatilgan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a’zolari tomonidan o‘rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abiturient bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo‘lgan voqeа-hodisa tahlil etiladi hamda abiturientning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o‘tkazgani aniqlanadi;

– jamiyat va uning turli sohalari, xususan, sport sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo‘yicha savollar beriladi;

– O‘zbekiston va jahonda yuz berayotgan so‘nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo‘yicha savollar berish orqali abiturientning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa sohalardagi o‘zgarishlardan boxabarlik darjasini aniqlanadi;

– badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– mashhur o'zbek va jahon sportchilari, ular faoliyatining OAVda yoritilishi, bu borada o'zbek sport jurnalistlarining faoliyati xususida nimalarni bilishi bo'yicha savollar beriladi;

– suhbat davomida sport jurnalistikasi sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abiturientning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abiturientning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlari aniqlanadi.

### **Og'zaki suhbat davomida so'rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:**

1. Sport jurnalisti uchun zarur bo'lgan muhim xususiyatlarni sanab bering.
2. O'zbekistonda qachondan boshlab oliy ta'lim muassasida sport jurnalistlari tayyorlana boshladi?
3. Sport jurnalisti bo'lib, sohaga ixtisoslashgan qaysi OAVda faoliyat yuritmoqchisiz?
4. Professional sport jurnalisti bo'lismish uchun sport ilmi muhimmi yoki jurnalistika ilmi?
5. Siz nega aynan sport jurnalistikasi sohasini tanladingiz? Bu tanlov kimning ta'sirida bo'ldi?
6. O'zbekistonning eng mashhur 5 nafar sport sharhlovchisini sanab bering.
7. Sizni jurnalistikada nima qiziqtiradi? Qachondan beri jurnalistika sohasiga qiziqasiz?
8. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?
9. OAVda materiallaringizni e'lon qilganmisiz? Qaysi OAVda nechta axborot materialingiz e'lon qilingan? Bu materiallar nima haqida? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.
10. O'zbekistonda keyingi yillarda sport sohasida qanday yutuqlarga erishildi?
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan e'lon qilingan "Taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?
12. Sport bilan jurnalistika o'zaro bog'liqligini qanday baholaysiz?
13. Gazeta deganda nimani tushunasiz? Gazetani ta'riflab bering. Sport sohasiga ixtisoslashgan qaysi gazetalarni bilasiz?
14. Jurnal deganda nimani tasavvur qilasiz? Shu haqda gapirib bering. Sport sohasiga ixtisoslashgan qaysi jurnallarni bilasiz?
15. Mashhur sport sharhlovchilaridan kimlarni taniysiz?
16. Radio nima? Siz radioni qanday tushunasiz?

17. Sizga qaysi OAV ko‘proq yoqadi: gazeta, radio, televideeniemi yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
18. Radiojurnalistlardan kimlarni taniysiz?
19. Televidenie nimasi bilan Sizni qiziqtiradi? Televidenieni qanday tushunasiz?
20. Sport telejurnalistlardan kimlarni taniysiz?
21. Internet nima ekanligini tushuntirib bering.
22. Internet sayti nima? Sport sohasida yangilik va materiallar uzatadigan internet saytlariga tavsif bering.
23. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo‘lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsga tegadigan bo‘lsa, nima qilasiz?
24. Jurnalistikada Sizni nima ko‘proq qiziqtiradi: teleekranga chiqishmi, ko‘nglingizdagи gaplarni yozishmi, xalq dardini o‘rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?
25. “Jurnalistning noni qattiq” degan ibora bor. Bunga munosabatingiz qanday?
26. Sizning nazaringizda, sport sharhlovchisi qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
27. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o‘qishdan nimalarni kutyapsiz?
28. TV orqali uzatiladigan sport sharhining radio orqali uzatiladigan sharhdan farqi va o‘ziga xosligi nimada?
29. Sport jurnalisti ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanishi mumkin?
30. Mashhur sportchidan intervyu olish imkoniyati tug‘ilsa qanday 5 ta asosiy savolni bergen bo‘lar edingiz?
31. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa niman olgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
32. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
33. Sport ko‘rsatuvlarida jonli efir deganda niman tushunasiz?
34. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
35. O‘zbekistonda sport jurnalistlari va sharhlovchilaridan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e’tiboringizni tortadi?
36. Jurnalist materiali insonning e’tiborini tortishi uchun nima qilish kerak?
37. Sport jurnalisti bo‘lsangiz qaysi mavzularda yozishni yoki ko‘rsatuv, eshittirish tayyorlashni istardingiz? Nima uchun?
38. Sport jurnalisti sportning biror turi bo‘yicha shug’ullanishi shartmi?
39. Siz bilgan sport jurnalistlari, sharhlovchilar ijdoda, chiqishlarida nimalar sizga yoqmaydi va nima uchun?
40. Sport jurnalistikasining bugungi jamiyatda tutgan o‘rni nimada deb o‘ylaysiz?
41. “Jurnalistni oyoqlari boqadi” iborasini izohlang?
42. O‘zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko‘rasiz?
43. Sport sohasiga ixtisoslashgan qaysi OAV ni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni jalb qiladi? Nimani o‘zgartirishni tavsiya qilgan bo‘lar edingiz?

44. Sizga biror sport sohasiga ixtisoslashgan OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishsa, qaysi OAV ni tanlaysiz?
45. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt sarflaysiz va qanday maqsadlarda?
46. Ijtimoiy tarmoqda o'z sahifangizni ochsangiz, sportga oid qanday axborotlarni berar edingiz?
47. Sport jurnalistikasida sportga oid ilmlarni bilish nima beradi?
48. Sport mavzusidagi xabarlarni qaysi telegram kanaldan ko'proq o'qiysiz?
49. O'zbekistonda qaysi telekanallar sport mavzusini ko'p yoritadi?
50. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?

**Ikkinchi bosqich** ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abiturientning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliv ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertda qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;
- qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinnbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlarga taqsimlaydi;
- ijodiy insho o'tkazilishi uchun **3 astronomik soat** vaqt belgilanadi;
- ijodiy insho betlari muhrlangan **12 varaqli daftarga** yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- ijodiy inshoning hajmi **5 betdan 10 betgacha** deb belgilanadi;
- ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;
- yozma ishlar faqat oliv ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;
- tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abiturientlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;
- ijodiy inshoga quyidagi yo'naliishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom

turmush tarzi.

- ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so‘ng e’lon qilinadi.

### Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko‘p balli baholash tizimi bo‘yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball miqdori – **93 ball**.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya’ni og‘zaki suhbat jarayonidagi savolvajobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning **33,3 foizi, ya’ni 31 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya’ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan **66,6 foizi, ya’ni 62 ball** belgilanadi.

Suhbat jarayonida berilgan savollarga javoblarni baholash mezonlari:

### Og‘zaki suhbatni baholash mezonlari

Og‘zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo‘yish mumkin.

Nº	Ballar qo‘yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo‘q, abiturientning fikrashi sayoz, OAVda e’lon qilingan materiallari yo‘q, lekin jurnalist bo‘lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim sport sharhlovchilarini taniydi, OAVda e’lon qilingan 1-3 kichik hajmli materiali bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistikaga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, sportga ixtisoslashgan OAVni izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e’lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta sport sharhlovchilarini taniydi, ularning ijodiga tavsif bera oladi, sportga oid mavzularda ijod qilgan.	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaga ko‘p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rnini chuqur tushunadi, sport sohasiga ixtisoslashgan OAVni yaxshi biladi, ko‘p sport sharhlovchilarini taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, sportga oid mavzularda ijod qilgan, 10-20 ta e’lon qilgan materiali bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistikaga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko‘p borgan va redaksiya ishi bilan tanish, jurnalistikaning jamiyatdagi o‘rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, sport jurnalistikasi haqida atroflicha tasavvuri bor, ko‘plab sport jurnalistlari	26 – 31 ball

	va sharhlovchilari ijodiga tavsif bera oladi, sportga oid mavzularda ijod qilgan, umumiy e'lon qilgan materiallari 20dan ko'p	
--	---	--

### Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

Nº	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	10 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
3.	Mavzu sayoz ochilgan, abiturientining fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqur emas, yozma ish mantiqan bo'sh, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha	1–8 ball
4.	Mavzu bir oz ochilgan, abiturientning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta	9–16 ball
5.	Mavzu o'rtacha ochilgan, abiturientning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz sayoz, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta	17–25 ball
6.	Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abiturientning dunyoqarashi torroq, lekin jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta	26–33 ball
7.	Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abiturientning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta	34–42 ball
8.	Mavzu yaxshi ochilgan, abiturientning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta	43–52 ball
9.	Mavzu teran ochib berilgan, abiturientning dunyoqarashi chuqur va atroflicha, jurnalistika roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar yo'q	53–62 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniga takdim etiladi.

## **Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi**

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abiturientlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ijodiy insho yozilgan daftar rasmiy hujjatda belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abiturientga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abiturient ishtirokida oliv ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abiturientlar e'tiboriga yetkaziladi.

## **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sون Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Mirziyoev Sh.M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" 4-jild. T. O'zbekiston. 2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 27-iyun matbuot va OAV xodimlari kuni munosabati bilan jurnalistlarga yo'llangan tabrige <https://president.uz/uz/lists/view/5294>
4. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmochimisiz? – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.
5. Toshpo'latova N. Jurnalistika. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari – T., "O'zbekiston". 2019.
6. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
7. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
8. Imomxo'jaev A. Maftuningman, futbol! T.: Sharq, 2004. – B.62.
9. Imomxo'jaev A. Futbol – quvonchim, dardim, faxrim. T.: Sharq, – B.69.
10. Saidov H., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: G'afur

G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B.120.

11. Qosimova N., Xidirov Q., Safarov A., Saidov H., Ortiqova Yu., Isomiddinova M., Do’simbetova N., Abduraxmonova M., Saidova M. Ixtisoslashgan jurnalistikasi. – T.: O’zbekiston NMIU, 2019.– B.784.
12. Xudoyqulov M., Jurnalistika va publitsistika, –T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2011. – B.188.
13. Obidov M. Farg’ona jurnalistikasi, –T.: “Sharq” aktsiyadorlik kompaniyasi., 2009. - B. 320.
14. Ortiqova Yu. Sport jurnalistikasi. –Toshkent. “MUMTOZ SOZ”. 2016. 104b.
15. Hasanov A. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash siyosatining prinsiplari” –Toshkent. “O’zbekiston NMIU”. 2023. – 56 b.
16. Safarov. A, Harbiy jurnalistika asoslari [Matn]: o’quv qo’llanma/– Toshkent: —Muhr-press nashriyoti, 2022. – 272 b.
17. Safarov A.I. Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi. O’quv qo’llanma. –T.: “Universitet”, 2023. 128 bet.
18. Fake News: Mediada dezinformatsiya. / N.Muratova, N.Toshpo’latova, G.Alimova. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020 y.
19. Fotojurnalistika [Matn]: o’quv qo’llanma / N.Qosimova [va boshq.]– T: «TURON-IQBOL», 2018.
20. Jurnalistika. 10 jildlik to‘plam. –Toshkent. “O’zbekiston” NMIU. 2019.
21. Meliboev A. Qirq beshinchi bekat – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
22. Muratova N. Onlayn jurnalistika: nazariya va amaliyot // T. Qaqnus media. 2019.
23. Rahmatullayeva I. Televideniye va radioda boshlovchi mahorati. T. “Mumtoz so’z”, 2022.
24. Media huquqi[Matn]: darslik / Nazira Qurbon, Karim Bahriyev. T. ; “Grand Inter Media”. 2022.
25. Jumanova S. Jurnalistika (abiturientlar uchun ijodiy imtihon qo’llanmasi) Ikkinchı nashr. T.: O’zJOKU MChJ, 2023.